

ZAMONAVIY TELELOYIHALARDA YOSHLAR TARBIYASI MASALASI: “YOSHLAR OQSHOMI” TELEDASTURI MISOLIDA

Munisxon Nayimova G‘ayrat qizi,
O‘zJoku magistranti
munisxonnayimova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Yoshlar” telekanalida efigra uzatilayotgan “Yoshlar oqshomi” ko‘rsatuvining yoshlar ta‘lim-tarbiyasidagi o‘rni jurnalistik tahlil metodida o‘rganilgan. Tadqiqot jarayonida ko‘rsatuvning beshta soni kuzatuv asosida tahlil qilinib, uning g‘oyaviy yo‘nalishi, janr xususiyatlari, boshlovchilar mahorati va auditoriyaga ta‘sir darajasi baholangan. Tahlil natijalari ko‘rsatuvning yoshlar auditoriyasiga ko‘ngilochar va ma‘naviy-ta‘limiy ta‘sir ko‘rsatish imkoniyatlarini hamda mavjud kamchiliklarni aniqlashga imkon bergan. Maqolada tahlil natijalari G. Gerbnerning “Ektishtirish nazariyasi” va A. Banduraning “Ijtimoiy O‘rganish Nazariyasi” asosida talqin qilingan.

Kalit so‘zlar: boshlovchining kommunikativ mahorati, jurnalistik tahlil metodlari, ta‘limiy teledasturlar, yoshlar auditoriyasi, “Yoshlar oqshomi” ko‘rsatuv, yoshlar televideniyesi tizimi.

Abstract. This article examines the role of the “Yoshlar Oqshomi” (Youth Evening) television program, broadcast on the “Yoshlar” channel, in the education and upbringing of young people. Five episodes of the program were analyzed using observational research methods, evaluating its ideological direction, genre characteristics, presenter skills, and audience impact. The analysis identified both the program's potential for entertaining and educational influence on youth audiences, as well as existing shortcomings. The findings are interpreted through G. Gerbner's Cultivation Theory and A. Bandura's Social Learning Theory.

Keywords: educational television program, host's professional skills, journalistic analysis, youth audience, “Yoshlar oqshomi”, youth television.

Аннотация. В данной статье исследуется роль телепрограммы «Йошлар оқшоми» («Вечер молодёжи»), телеканала «Йошлар», в образовании и воспитании молодёжи. Были проанализированы пять выпусков программы методом наблюдения. Результаты интерпретируются через призму теории культивации Дж. Гербнера и теории социального обучения А. Бандуры.

Ключевые слова: ведущий мастерство, журналистский анализ, «Йошлар оқшоми», образовательная телепрограмма, молодежная аудитория, молодежное телевидение.

Kirish. Zamonaviy axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bir davrda televideniye yoshlar ta‘lim-tarbiyasiga ta‘sir ko‘rsatishning eng qudratli vositalaridan biri bo‘lib qolmoqda. O‘zbekistonda yoshlarga mo‘ljallangan teledasturlar soni yil sayin ortib bormoqda, biroq ularning tarbiyaviy salohiyatini ilmiy jihatdan o‘rganish hali etarli darajada amalga oshirilmagan. Ushbu maqolada “Yoshlar” telekanalida efigra uzatilayotgan “Yoshlar oqshomi” ko‘rsatuvining jurnalistik tahlili amalga oshiriladi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, “Yoshlar oqshomi” 2022-yildan beri muntazam efigra uzatilayotgan bo‘lib, millionlab yoshlar auditoriyasiga ta‘sir ko‘rsatmoqda, ammo uning mazmuniy va tarbiyaviy xususiyatlari ilmiy jihatdan kam o‘rganilgan.

Gerbnerning “Ektishtirish nazariyasi”ga ko‘ra, televideniye muntazam tomosha qiluvchi yoshlar real dunyoni televideniye ko‘rsatganidek tasavvur qila boshlaydi. Banduraning “Ijtimoiy O‘rganish Nazariyasi” esa shuni ko‘rsatadiki, yoshlar teledasturlardagi qahramonlar va boshlovchilarning xulq-atvorini kuzatib o‘rganadi va

ularga taqlid qiladi. Ushbu nazariy asoslar “Yoshlar oqshomi” kabi ko‘rsatuvlarning yoshlar tarbiyasidagi o‘rnini o‘rganishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda kuzatuv va tahlil metodi qo‘llanildi. “Yoshlar oqshomi” ko‘rsatuvining beshta soni soha vakili nuqtai nazaridan o‘rganildi. Har bir son quyidagi mezonlar asosida tahlil qilindi: kirish qismining samaradorligi, boshlovchilar mahorati va nutq madaniyati, sahna madaniyati va vizual estetika, mavzu tanlovi va mazmuniy chuqurlik, tomoshabin bilan interaktiv muloqot darajasi, ko‘rsatuvning tarbiyaviy va ma‘naviy ahamiyati. Bundan tashqari, ko‘rsatuvning ijodiy jamoasi bilan o‘tkazilgan suhbatlar ham tadqiqotning empirik asosini boyitdi.

“Yoshlar oqshomi” ko‘rsatuvining umumiy tavsifi. “Yoshlar oqshomi” teledasturi 2022-yil 4-iyun sanasidan boshlab “Yoshlar” telekanalida efirga uzatila boshlagan bo‘lib, janr jihatidan ko‘ngilochar yo‘nalishga mansub hisoblanadi. Dastur davomiyligi o‘rtacha 70–80 daqiqani tashkil etadi. Efir formati asosan jonli bo‘lib, faqat ayrim maxsus sonlari oldindan yozib olingan holda namoyish etilgan. Ko‘rsatuvning maqsadli auditoriyasi 16 yoshdan 40 yoshgacha bo‘lgan tomoshabinlar qatlamini qamrab oladi. Loyiha faoliyati davomida boshlovchilar tarkibi sezilarli darajada kengayib, ularning umumiy soni 15 nafardan oshgan. Ko‘rsatuv 2026-yil mart oyigacha muntazam ravishda efirga uzatilgan.

Beshta son tahlilining natijalari. Birinchi son tahlili shuni ko‘rsatdiki, kirish qismida boshlovchilarning kimligi aniq ochib berilmagan va ism-familiyalar ekranda ko‘rsatilmagan. Boshlovchilar nutqida “shakar bo‘laman”, “asal bo‘laman” kabi iboralarning ishlatilishi ko‘rsatuv saviyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan. Fihrteliusning ta‘kidlashicha, efirdagi boshlovchining nutqi aniq, lo‘nda va auditoriya saviyasiga mos bo‘lishi dastur ta‘sirchanligini belgilovchi muhim omildir. Ikkinchi son “Onalarni madh etuvchi san‘atkor” sarlavhasi ostida namoyish etilgan. Tajribali jurnalist Axror Qo‘shmatovning vazminligi va yosh boshlovchining faolligining uyg‘unlashuvi efir ohangini barqarorlashtirgan. Tomoshabinlar bilan interaktiv muloqotning yo‘lga qo‘yilishi yoshlar auditoriyasi uchun ayniqsa muhim bo‘lib, ularning o‘z fikrini bildirib borish ehtiyojiga mos kelgan. Biroq sarlavha va mazmun o‘rtasida nomuvofiqlik kuzatilgan — “ona” mavzusi yetarlicha chuqur yoritilmagan.

Uchinchi sonda bitta boshlovchi va ikki mehmon ishtirokida ixcham format qo‘llanilgan. Yodgor Mirzajonov kabi mashhur san‘atkorning ishtirok etishi nostalgik effekt hosil qilib, reyting salohiyatini oshirgan. Biroq boshlovchining nutqida sheva unsurlari, taftalogiya va noo‘rin so‘z qo‘llash holatlari kuzatilgan. Bu holat Fihrteliusning nutq madaniyatiga oid tamoyillariga zid. To‘rtinchi son “tabassum qilish” g‘oyasi asosida qurilgan bo‘lib, tadqiqot davomida eng yuqori professional darajani ko‘rsatgan son sifatida baholandi. Muzaffar Mirzabekov va Qizlarxon Xo‘jayeva boshlovchiligida nutq madaniyati, sahna etiketasi va interaktiv muloqot uyg‘un tarzda amalga oshirilgan.

Ko'rsatuvning 1 soat 15 daqiqalik davomiyligida uzilishlar va mavzudan chetlashish kuzatilmagan.

Beshinchi sonda “yoshlik” va “bolalik” mavzulari eng yosh boshlovchilar — Sherzod Jumayev va Marjonaxon tomonidan olib borilgan. Mavzu tanlovi konsepsiyaga mos bo'lgan. Biroq boshlovchining sahnaga samokatda kirib kelishi sahna madaniyati nuqtai nazaridan ikki xil baholangan. Bundan tashqari, nutqda sheva unsurlari va ruscha so'zlarning tez-tez qo'llanilishi professional mezonlarga zid holat sifatida qayd etilgan.

Muhokama va xulosalar. Beshta sonning qiyosiy tahlili “Yoshlar oqshomi” ko'rsatuvining bir qator umumiy tendensiyalarini namoyon etdi. Ijobiy tomonlar: mavzu tanlovi rang-barangligi, tomoshabinlar bilan interaktiv muloqot elementlari, tajribali va yosh boshlovchilarning uyg'unligidan foydalanish. Kamchiliklar: boshlovchilar nutqida adabiy til me'yorlarining muntazam buzilishi, sarlavha va mazmun o'rtasidagi ba'zi nomuvofiqliklar, sahna etiketasiga oid muammolar. Gerbnerning “Ektishtirish nazariyasi” nuqtai nazaridan, “Yoshlar oqshomi” ko'rsatuvini yoshlar auditoriyasiga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatib, ularning dunyoqarashi va xulq-atvorini shakllantirishda faol ishtirok etmoqda. Banduraning nazariyasiga ko'ra esa, boshlovchilarning nutq madaniyati va xulq-atvori yoshlar uchun bevosita namuna bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli boshlovchilarning professional darajasini oshirish ko'rsatuvning tarbiyaviy salohiyatini kuchaytirish uchun ustuvor vazifa hisoblanadi. Zohidova va Hikmatillayevning tadqiqotiga ko'ra, yoshlarga mo'ljallangan teledasturlarning asosiy maqsadi yoshlar orasida sog'lom dunyoqarash, ijtimoiy faollik va shaxsiy o'sishga yordam beradigan fazilatlarni shakllantirishdan iborat. “Yoshlar oqshomi” bu maqsadga qisman erishgan: u yoshlar uchun ijodiy namuna bo'lib xizmat qiluvchi san'atkorlar bilan muloqot platformasi sifatida namoyon bo'lgan. Biroq tarbiyaviy va ma'naviy mazmunni kuchaytirish zarur.

Tavsiyalar. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: birinchidan, boshlovchilarni tanlashda nutq madaniyati va sahna etiketasiga oid maxsus mezonlar belgilanishi lozim; ikkinchidan, sarlavha va mazmun o'rtasidagi izchillikni ta'minlash uchun tahririy nazoratni kuchaytirish zarur; uchinchidan, tomoshabinlar bilan interaktiv muloqotni yanada faollashtirish maqsadga muvofiq; to'rtinchidan, ko'rsatuvga tarbiyaviy va ma'naviy komponentni oshirish uchun mutaxassis psixolog yoki pedagog ishtirokini ta'minlash tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fihrtelius, E. (2002). Jurnalistikaning 10 qoidasi. Toshkent: Sharq. 108-b.
2. Gerbner, G., Gross, L., Morgan, M., & Signorielli, N. (1986). Living with television: The dynamics of the cultivation process. In J. Bryant & D. Zillmann (Eds.), Perspectives on media effects (pp. 17–40). Lawrence Erlbaum Associates.
3. Grusec, J. E. (1992). Social learning theory and developmental psychology. *Developmental Psychology*, 28(5), 776–786.
4. Rahmatullayeva, I. (2022). O'zbekiston televideniyesi yoshlar ko'rsatuvlari tarixi. Toshkent: Mumtoz so'z.

5. Zohidova, Y., & Hikmatillayev, M. (2024). Yoshlar mavzusiga oid teleko'rsatuvlarning zamonaviy jamiyatdagi roli va ahamiyati. *International Journal of Media and Communications in Central Asia*, 7, 24–35.
6. Mo'minov, F.A. (1998). *Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida*. Toshkent: ToshDU nashriyoti.

